



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИ
ВАЗИРЛИГИ**

САМАРҚАНД ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИНСТИТУТИ

*«Агрокимё, тупроқшунослик ва
ўсимликларни ҳимоя қилиш»
кафедраси
5410300 – Ўсимликлар ҳимояси ва
карантини таълим йўналиши
бакалавриат битирувчиси*

**АТАБЕКИ АДУФАРИЗ ЭРНЕСТОВИЧНИНГ
*МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШИ***

**Беда барг филчаси ёки фитономус (*Phytonomus variabilis*
Hbst), биологияси, экологияси ва қарши кураш
чоралари**



Илмий раҳбар, ассистент _____ Ш.А.Холмуродов

Илмий маслаҳатчи, катта ўқитувчи _____ С.И.Аҳмедов

*Малакавий битирув иши Агрокимё,
тупроқшунослик ва ўсимликларни
ҳимоя қилиш кафедраси йиғилиши-
да муҳокама қилинди ва ДАК ҳимоя-
сига тавсия этилди. Кафедра мудири,
профессор _____ Ф.Ҳ.Ҳошимов
«___» _____ 2015 йил
Баённома № _____*

*Агрономия факултети
декани, доцент*

_____ Д.С.Нормуродов

«___» _____ 2015 й

САМАРҚАНД-2015

«Агрокимё, тупрокшунослик ва ўсимликларни химоя қилиш»

кафедрасининг _____ - сонли мажлис

БАЁНИДАН КЎЧИРМА

«__»_май_ 2015 йил

Самарқанд шаҳри

Қатнашдилар: Ф.Ҳошимов – кафедра мудири, профессор, П.Узоқов – кафедра профессори, М.Ҳайитов – кафедра доценти, Б.Абдуллаев - кафедра доценти, Т.Ортиқов - кафедра доценти, Э. Умурзоқов - к.х.ф.доктори, С.Аҳмедов - кафедра катта ўқитувчиси, О.Назаров – кафедра катта ўқитувчиси, М.Машрабов - кафедра ассистенти, А.Садинов - кафедра ассистенти, Ш.Ҳазратқулов - кафедра ассистенти, А. Худойқулов- кафедра ассистенти, О. Пўлатов - кафедра ассистенти, Л.Сонамян - кафедра лаборанти, М. Ғуломова-кафедра лаборанти, ҳамда кундузги бўлимнинг кафедрада малакавий битирув иши бажарган 57 нафар талабаси.

Кун тартиби:

Кундузги бўлим битирувчиси Атабеки Адуфариз Эрнестовичнинг «Беда барг филчаси ёки фитономус (*Phytonomus variabilis* Hbst), биологияси, экологияси ва қарши кураш чоралари» мавзусидаги малакавий битирув иши муҳокамаси.

Сўзга чиқди:

Кафедра мудири, профессор Ф.Ҳошимов Ўзбекистон Республикаси ОЎМТВ нинг 9.06.2010 йил 225 сонли буйруғи билан тасдиқланган «Олий ўқув юртлари бакалаврларининг малакавий битирув иши» тўғрисидаги низомига асосан ҳар бир малакавий битирув иши кафедрада муҳокама қилингандан кейин ДАК химоясига тавсия етилиши кераклигини айтиб ўтди. Кафедрамизда кундузги бўлим битирувчиси Атабеки Адуфариз Эрнестовичнинг «Беда барг филчаси ёки фитономус (*Phytonomus variabilis* Hbst), биологияси, экологияси ва қарши кураш чоралари» мавзусидаги малакавий битирув иши муҳокамасини эшитамиз.

Шундан сўнг Атабеки Адуфариз Эрнестович ўз малакавий битирув иши мавзусини долзарблигини, аҳамиятини, илмий янгилигини, олинган натижаларни ва қилинган хулосаларни маъруза қилди.

Маърузачига мавзу юзасидан 4 та савол берилди, у берилган саволларга жавоб берди.

Муҳокамада Ф.Ҳошимов, П. Узоқов, Т. Ортиқов, С. Аҳмедов ва Б. Абдуллаевлар иштирок этдилар.

ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. Кундузги бўлим битирувчиси Атабеки Адуфариз Эрнестовичнинг «Беда барг филчаси ёки фитономус (*Phytonomus variabilis* Hbst), биологияси, экологияси ва қарши кураш чоралари» мавзусидаги малакавий битирув иши барча кўрсаткичлари бўйича ДАК талабларига жавоб бериши инobatга олиниб, у ДАК да химоя қилиш учун тавсия этилсин.

Мажлис раиси, профессор

Ф.Ҳошимов

Котиба

М.Ғуломова

M U N D A R I J A

Kirish.....	
I. Mavzuning o'rganilish tarixi va uni ilmiy asoslash (Adabiyotlar taxlili).....	
1.1. Fitonomus bioyekologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	
1.2. Fitonomusga qarshi kurashish tadbirlari va ularning samaradorligi.....	
1.3. Fitonomus miqdorini kamaytiruvchi tabiiy omillar.....	
II. Tadqiqot o'tkazilgan joyining fizik – geografik tavsifi, materiallari va usuli.....	
2.1. Samarqand viloyatining fizik – geografik tavsifi.....	
2.2. Tadqiqot materiallari va usullari.....	
2.3. Fitonomusga qarshi qo'llanilgan vositalarning tavsifi.....	
III. Tadqiqot natijalari.....	
3.1. Bada agrosenozi fitonomus miqdorining mavsumiy o'zgarishi va zararining ko'lamini 3.2. Fitonomus miqdorini kamaytiruvchi tabiiy omillar, 3.3. ularning xilma- xilligi va ahamiyati.....	
IV. Fitonomusga qarshi kurashishda atrof muhitga kam zararli sun'iy vositalarni qo'llash natijalari.....	
4.1. Biologik faol, sof kimyoviy va mineral o'g'itli aralashmalarining	

fitonomus miqdorini kamaytirishdagi ahamiyati.....	
5.Hayot faoliyati xavfsizligi.....	
Xulosa va takliflar.....	
Ishlab chiqarishga tavsiyalar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	
Ilova (internet ma'lumotlari).....	

Kirish

Ishning umumiy tavsifi.

Mavzuning muhimligi. Beda almashlab ekishda, tuproq unumdorligini oshirishda va chorvachilik uchun vitamanga boy ozuqa sifatida muhim yekin hisoblanadi. Bedani 200 dan ortiq turdagi hasharotlar zararlab, uning hosildorligi va mahsulot sifatini pasaytiradi. Bu yekinni zararlovchi hasharotlar orasida beda barg filchasi yoki fitonomus (*Photonomus variables* H bst) jiddiy zararkunanda hisoblanadi. Bedazorlar bu hasharotlar bilan kuchli zararlanganda yekinning birinchi o'rim hosili 60-65% gacha kamayib; mahsulot sifati chorva oziqasi uchun yaroqsiz holga keladi (Yaxontov, 1962). Hasharot har poya o'simlik hisobiga 7 donadan to'g'ri kelganda ham hosil o'rta hisobda 20 sentnerga kamayib, mahsulot tarkibidagi moy va oqsil mikdori keskin kamayadi (Polevshekova, Soroshina, 1969). Keyingi yillarda O'zbekistonning janubiy mintaqalarida ayniqsa Zarafshon vohasi sharoitida fitonomusning tarqalish ko'lamini va zarari muntazam oshib bormoqda. Buning oldini olish uchun ilgari tavsiya yetilgan vosita va usullar yordamida hasharot miqdorini zarur darajada cheklab turish muammo bo'lmokda. Insektisidlar qo'llash atrof muhit va foydali hasharotlar uchun zararli, ma'lum agrotadbirlar yordamida yesa yoppasiga va ko'p miqdorda uchraydigan fitonomus xurujini cheklash, ayniqsa uning miqdorini zarur muddat va darajada amaytirish qiyin. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi, yekin turining sug'oriladigan maydonlar, bedazorlar, almashlab yekin tizimlarining tubdan o'zgarishi sharoitida, ayniqsa uning mavsumiy miqdor o'zgarishi xususiyatlarini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Mavzuning muhimligi yana shundaki, fitonomusga qarshi samarali va atrof muhitga kam zararli kurashish tadbirlari shu kungacha yetarlicha o'rganilmagan. Chunonchi, unga qarshi tabiiy omillardan asosiysi bo'lgan batiplektes biyokologiyasining o'ziga xos xususiyatlari va uning ko'payishiga g'ov bo'ladigan tabiiy omillar, jumladan yentomofaglar, yepizootiy tug'diruvchi mikroorganizmlarni o'rganish ham yechimini kutayotgan muammolardandir.

Maxsus adabiyotlardan (Loginova, 1971; Polevshikova, 1974; Karavyanskiy va Sergeyev , 1977; Maksimov , 1979; Shusterlar 1979 va b.)

Mineral o'g'it hamda me'yori kamaytirilgan insektisid aralashmalarining muhitini uncha ifloslantirmagan holda, yekinning bardoshlilik oshirishi; undagi hasharot miqdorini kamaytirishi qayd yetilgan. Bu muhim omillarning zarur turlarini yaratish, ulardan bedazorlarda fitonomus lichinkalariga qarshi foydalanish muammosi ham keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqozo yetadi va u fitonomusga qarshi atrof muhitga kam ta'sir yetuvchi samarali kurash uslubini ishlab chiqishga asos bo'la oladi.

Maqsad va vazifalar.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishining maqsadi va vazifasi quyidagi muammolarni atroflicha o'rganishdan iborat:

- fitonomus bioyekologiyasining hamda mavsumiy mikdor agrosenozida uning faolliligini aniqlash;
- beda agrosenozida fitonomusga qarshi kurashishda atrof muhitga zarari kam yoki zararsiz samarali, sof kimyoviy va mineral o'g'itlar aralashmasining sinash va ulardan yeng maqbullarini tanlab, ishlab chiqarishga tavsiya yetish;
- bedazorlarda fitonomus miqdori va zararini kamaytirish, beda hosildorligining oshirishning atrof muhitga bezarar yeng maqbul vositalari va yo'llarining iqtisodiy samaradorligini aniqlab, ishlab chiqarishga keng joriy yetish uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

I. BOB.

Mavzuning o'rganilish tarixi va uning ilmiy asoslash

(Adabiyotlar tahlili).

1.1. Fitonomus bioyekologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

O'rta Osiyoda bedaning zararli hasharot va kasalliklarini o'rganish 1929 yilda ochilgan g'o'za va almashlab yekishga unga izdosh o'simliklarni himoya qilish markazida, keyinchalik Butunittifoq paxtachilik ilmiy tadqiqot institutining O'simliklarni himoya qilish markaziy bo'linmasida boshlandi.

Chet el ma'lumotlaridan, ma'lum bo'lishicha yesa 1790 yildayoq J.F. Harbost (1790) tomonidan fitonomuslarga tavsif berilgan. Shunga ko'ra uning asl vatani O'rta Yevropa deb hisoblanadi. Keyinchalik L. Gamenxal (1813) fitonomusga phytonomus postikus gull deb nom berdi va uni ta'rifladi.

Fitonomus haqidagi dastlabki xabarlar orasida uning 1916 yilda Amerikada ham tarqala boshlaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar bor (Reyeves, Miles, Chamberlin va boshqalar, 1916.).

O'zbekistonda yesa V.V.Yaxontov bedaning zararli hasharotlari, xususan beda barg filchasi - fitonomusning bioyekologiyasini chuqur o'rganish asosida bu hasharotga bag'ishlangan yirik monografiyasini chop yetdi (Yaxontov, 1934) Shuningdek boshqa ko'pchilik olimlar (Arxangelskiy 1941; Polevuyikova, Sorokina 1969; Avanesova 1979; Baranov va b. 1988; Hamdamzoda va boshqalar, 1989; Abdullayeva, 2008) fitonomusni o'rganishgan.

Fitonomus qo'ng'izining u uchraydigan hamma joyda bir xilda, ya'ni voyaga yetgan holda asosan bedazorlarda, tuproqda, o'simlik ildizi atrofida, devorlarning orasida, devorlarning taglarida hatto daraxt po'stlog'larida qishlashini qayd yetdilar. V.S.Chuvaxin (1952), A.A Migulin (1983)larning ta'kidlashicha, janubiy mintaqalarda fitonomus nafaqat qo'ng'iz holatida, balki tuxum holatida ham qishlashi mumkin yekan.

P.P Grosse (1919) Fransiyada fitonomus qo'ng'izlari qishlash uchun yerga tushadi va o'simlik ostida to'planadi, deb ta'kidlab o'tgan. V.V.Yaxontovning (1934) Buxoro va Toshkent viloyatlarida olib borgan tekshirishlariga ko'ra, fitonomus qishki uyqudan yerta bahorda, beda yendi o'sishni boshlayotganda uyg'onadi va bu havo harorati 8–10 °S ga ko'tarilgan vaqtga to'g'ri keladi. Muallifning laboratoriyada o'tkazgan tajribalaridan ma'lum bo'lishicha, 12 °S haroratda fitonomus o'z faoliyatini boshlaydi, ya'ni harakat qiladi va oziqlanadi. T.N.Parks (1914) tajribalarida ham shunday ma'lumotlar keltirilgan. Bahorda lichinkalarning tuxumlardan chiqishning muddati to'g'risida ham adabiyotlardan bir–birini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud. Fitonomus o'zi tarqalgan mintaqalarning iqlim sharoitiga mos holda turli muddatlarda qishki uyqudan uyg'onishi aniqlangan. Masalan, O'zbekiston shimoli Xivada martning ikkinchi yarmida, Tiflis va Yerevanda mayning boshida yoki o'rtasida (Uvarov, 1916), Shimoliy Amerikaning Yuta shtatida aprel oyida (Colley,), Italiyada aprelning oxirida (Mortelli, 1914) lichinkalarning tuxumdan chiqishi kuzatilgan.

Havo haroratining yillar bo'yicha o'zgarib turishiga bog'lik holda fitonomus bahorda tuxumdan chiqishi kuzatilgan.

Havo haroratining yillar bo'yicha o'zgarib turishiga bog'liq holda fitonomus bahorda tuxumdan chiqishi muddatlari ham o'zgarib turadi. V.V. Yaxontovning Buxoroda olib borgan kuzatishlariga ko'ra 1927 yilda tuxumdan lichinkalarning chiqish muddatlari ham bahorgi chiqishi martning oxirida boshlangan. 1929 yilning shu davrida lichinkalar yoppasiga tuxumdan chiqqan. 1928 yilda yesa xuddi shu joyda lichinkalarning tuxumdan chiqishi martning birinchi o'n kunligida kuzatilgan (Yaxontov , 1934).

V.N.Manukyanning (1967) ko'rsatishicha, Ararat vodiysida fitonomus lichinkalari fevralning oxirida paydo bo'ladi.

M.Yu.Bayramov va M.G.Ismoilovlar (1970) kuzatishlaricha fitonomus qo'ng'izlari, Ozarbayjonda tuproq 10 – 12 °S isiganda chiqib, fevralning

yarmida tuxumlardan lichinkalar paydo bo'ladi, oyning oxiriga borib yesa, ular yoppasiga tuxumdan chiqadi.

G.I.Sadikovning (1991) ta'kidlashicha, Naxichevanda lichinkalarning tuxumdan yoppasiga chiqishi aprelning III – o'n kunligiga to'g'ri keladi.

V.G.Kovalenkovning (1992) ko'rsatishicha, fitonomus qo'ng'izlarning Tojikistonda 11–27 fevralda qishdan chiqishi, 22 fevral – 9 mart oraligida tuxum qo'yishi, 27–fevral 12-martda tuxumlardan lichinkalarning paydo bo'lishi kuzatiladi.

Fitonomus qo'ng'izlari haroratga juda sezgir bo'ladi. Qishdan chiqqan qo'ng'izlar bahorgi kechki sovuqlarda o'simliklar ostiga, yerning yoriqlariga kirib yashirinib, kun isiganda chiqadi. (Yaxontov, 1934) .

Fitonomus asosan haroratga sezgir, shu bois qo'ng'izlar qishni uyqudalik vaqtida tuproq 12 °S gacha ilib qolsa, ular uyg'onishadi va qishlayotgan joylarini tark yetishadi (Telenga , 1930; Yaxontov , 1934).

V.V.Yaxontov (1934) qo'ng'izlar namlikka birmuncha befarq yekanini ta'kidlaydi. Juda yuqori nisbiy namlikda qo'ng'izlarning faoliyati susayishini, lekin O'rta Osiyoning yomg'irli bahorlari ularga sezilarli zarar yetkaza olmasligini ham aytib o'tgan.Qo'ng'izlar bahorda-qishki uyqudan uygonishi bilan oziqlanishiga tushib ketadi. Keyin ular juftlashadi va tez orada tuxum qo'yishga kirishadi. Qo'ng'izlar qishlab chiqqanda jinsiy yetishgan bo'ladi.

V.N.Manukyanning (1967) kuzatishicha, g'umbakdan chiqqandan keyin yerkak fitonomuslar 90–170 kunda jinsiy, urg'ochilari yesa 12–15 kunda jinsiy yetiladi. O'tgan yildagi yerkak qo'ng'izlar bilan yangi urg'ochilar urug'lansa yertangi tuxum qo'yadi. V.N.Manukyan tajribasida mayning oxirida daladan yig'ib kelingan urg'ochi qo'ng'izlari 15 kun o'tganda keyin tuxum qo'ygan, ular o'tgan yilgi yerkak qo'ng'izlar bilan urug'langan. O'tgan yilgi yerkak qo'ng'izlar qo'yilmagan tajriba bo'laklarida yangi avlod urg'ochilari tuxum qo'ymagan,

qo'ng'izlari ham urug'lanmagan. Qishlab chiqqan yerkak va urg'ochi qo'ng'izlarning soni 1/7 nisbatda bo'lishi ham aniqlangan (Yaxontov, 1934). Qo'ng'izlarning juftlashishi ko'p marta va uzoq muddatli bo'ladi. N.A. Grossiym (1914) 0,5 soatdan 8 soatgacha davom yetishini, o'rtacha 3 – 4 soatgacha cho'zilishini ta'kidlagan bo'lsa, V.V.Yaxontov (1934) 1 soat 10 daqiqadan 4, 5 soatgacha davom yetishini kuzatgan. Qayta urug'lanishi bir necha marta (7 sutkada) takrorlanishi mumkin.

Ko'pgina qo'ng'izlar urug'langan holatda qishlasa kerak, chunki F.M.Wyebster (1912) kuzatishlariga ko'ra qishda yig'ib kelingan 75% foiz urg'ochi qo'ng'izlar rivojlanishga layoqatli tuxum qo'yilgan. Odatda fitonomus yashil poyalar ichiga va qisman barg qultqlariga, ayrim hollarda ko'ringan beda poyalariga ham tuxum qo'yadi. U to'g'ridan-to'g'ri o'simlik ustki qismlariga, laboratoriyada yasa idishlar yopilgan dokalarga ham tuxum qo'yishi mumkin yekan. Fitonomusning bedadan boshqa joylarga tuxum qo'yishi mumkinligi qator adabiyotlarda qayd yetilgan (Yaxontov, 1934 va boshqalar). N.A. Telenganing (1930) kuzatishlaricha, fitonomus qo'ng'izlari Xiva atrofida turli begona o'tlarning qoldiqlariga tuxum qo'ygan. Shunisi muhimki, bu yerlarda o'sha paytlar ko'k beda bo'lmagan. Bunday hollarni qishda uyg'onib qolgan qo'ng'izlarda ham ko'rish mumkin. Ko'k beda mo'l bo'lgan bahor oylarida fitonomus qo'ng'izlari tuxum qo'yish uchun bedaning yangi, qattiq tez o'sadigan qalin poyalarini tanlashadi (Wyebstr, 1912; Telenga, 1930). V.V.Yaxontov ta'kidlaganidek (1934), tuxum qo'yishdan oldin qo'ng'izlar tanlagan poyani kemirib teshadi va tuxum qo'yishini kirishib tuxum qo'yadi. So'ngra bu teshikcha og'zini tez qotadigan suyuqligi bilan zichlab yopadi. Tuxumlarning poyadosh o'rni va soni to'g'risida adabiyotlarda turli xil ma'lumotlar mavjud. H.I.Swyeyetman (1929) ma'lumotiga ko'ra, fitonomus tuxumlarining bedani yuqori bug'imlariga joylashtirishini ta'kidlaydi. V.V.Yaxontov (1934) tuxumlar dastlab poyaning pastki qismlariga qo'yilishini, beda o'sishi bilan ular yuqoriga ko'tarilishini ta'minlaydi. H.I.Swyeyetman (1929) ning ko'rsatishicha, bir poya katakchasida 4–

12; T.H.Parks (1912) ning ta'kidlashicha aprelda 3 – 8 mayda 8–9ta, yeng ko'p bo'lganda 25–30 tagacha ; F.M.Wyebster (1912) 4—30 gacha; N. A. Grosgeym (1924) ma'lumoti bo'yicha 7 tadan 49 tagacha; M.Yu.Bayramov va M.T.Ismoilov (1970) tekshirishlariga ko'ra, Ozarbaydjon fitonomus qo'ng'izlari 5 tadan 30 tagacha tuxum qo'yishi qayd yetilgan.V.V.Yaxontovning (1934) Toshkent va Buxoro viloyatlarida kuzatishicha, qo'ng'izlar bir poyaga 7 tadan 22 tagacha tuxum qo'yishgan. Fitonomusni tuxum qo'yishi imkoniyatlari bo'yicha ham adabiyotlarda har-xil ma'lumotlar mavjud.

T. H.Parks (1914) 7 ta fitonomus qo'ng'izi 1184 gacha , o'rtacha yesa 736 ta tuxum qo'yganini aniqlagan. Bu tadqiqotchi tuxum qo'yish tezligi haroratga bog'liqligini ko'rsatadi. Sutkali o'rtacha harorat qanchali yuqori bo'lsa tuxum qo'yish shunchali yuqori bo'ladi. V.V.Yaxontovning kuzatishlarida ham bu fikr tasdiqlangan V.I. Plotnikov (1926) bergan ma'lumotlariga ko'ra, Toshkentda 24 martdan 25 maygacha yashagan urg'ochi fitonomus qo'ng'izlari 360 tadan tuxum qo'ygan.Tuxumlarning har-xil muddatda yetilishi ham asosan haroratning o'zgarishiga bog'liqligi tasdiqlangan. Ye.G.Titus (1910) Shimoliy Amerikada 7 – 16 kunda tuxumning yembrional rivojlanishi tugashini kuzatgan, Kubanda N.A.Grossiym bu jarayonni 4-12-21 kun, N.A. Telenga (1930) Xivada 5-45 kun davom yetishini qayd yetgan.V.V.Yaxontov (1934) tuxumning yembrional rivojlanishi 22°S haroratda 10 kun, 21°S da 17 kun va 17°S 18 kun davom yetilishi, shuningdek bu jarayon boshlanishidagi harorat chegarasi $12,2^{\circ}\text{S}$ ga teng yekanligini aniqlagan. Tuxumlardan lichinkalarning chiqishi bir vaqtda yuz beradi. Bunda lichinkalardan ba'zilar yangi joydan teshib chiqsa ba'zilar tuxum qo'yilgan yeski teshiklarni ochib, yana boshqalari yesa poyadagi yoriqlardan chiqadi.

Professor Ye.G. Titus (1910) ta'kidlashicha, lichinkalar poyaning ichidaligidayoq oziqlanishga kirishadi, ba'zan u yerda qolib 3 – 4 kun oziqlanib ikki yoshga o'tguncha yashashi mumkin. Ular birinchi yoshda juda chaqqon harakat qilib o'simlik kurtagining ichiga kirib oladilar va 3 yoshgacha oziqlanib

o'sishini nuqtalarini shikastlaydilar. Qurtlar soni ko'p bo'lganda o'simlik butunlay o'sishdan to'xtab qoladi. Uchinchi yoshdan keyin yesa fitonomus lichinkalari ochiqchasiga, ya'ni barglar bilan ovqatlanishga o'tadi. Lichinkalarning yoppasiga kurtakdan chiqishi olma yerta navlari gullagan vaqtga to'g'ri keladi.(Yaxontov, 1934).Fitonomus lichinkalarining rivojlanishi ham haroratga bog'liq. Fransiyada F.Pikard (1914) bu jarayonning 50 – 60 kunda, Kubanda N.A.Grosgeym 17 – 18 kunda o'tishini kuzatganlar. V.V.Yaxontov (1934) fitonomus lichinkalarining o'rtacha 22°S haroratda 15 kun, 21°S da 17°S da 28 kun rivojlanishini va bu jarayonning boshlanishi uchun zarur harorat chegarasi 12.5°S ga tengligini aniqlangan. Lichinkalarning yoppasiga g'umbakka aylanishi Toshkent va Samarqand viloyatlarida bedaning birinchi o'rimi vaqtiga to'g'ri keladi va g'umbakka aylanish har doim o'zi oziqlanib turgan o'simlikda bo'ladi. (Yaxontov, 1934)V.N.Manukyan (1967) Araratda aprelning oxirida lichinkalar yoppasiga g'umbakka aylanishini, M. Yu.Bayramov va M. P.Ismoilov (1970) Ozarbayjonda 15 – 20 mayda bu jarayon sodir bo'lishini kuzatganlar.Fitonomus lichinkasi o'ziga xos oq pillani odatdagidak suyak bezlari jumlasiga kiradigan ipak ajratuvchi bezlardan yemas, malpigiy naychalaridan ajralgan suyuqlikdan hosil qiladi.(Wyebster, 1912 Grosgeym,1914; Yaxontov 1934). G'umbakning rivojlanishi N.A.Grosgeymning (1914) kuzatishicha, 6 – 11 kun; N.A.Telenganing (1914) kuzatishicha, 5 kun va undan ko'prok davom yetishi mumkin. V.V.Yaxontovning (1934) ko'rsatishicha g'umbak $21,20^{\circ}\text{S}$ haroratda 6 kun, 22°S da 6 kun, $17,16^{\circ}\text{S}$ da 10 kun rivojlanadi. Rivojlanishing boshlanishi uchun zarur harorat chegarasi $10,4^{\circ}\text{S}$ ga teng. G'umbakdan qo'ng'izlar pillani kemirib tashqariga chiqadi va barg, poyalar va kurtagi bilan oziqlanishga kirishadi. Qo'ng'izlar boshqa turdagi ozuqalar bilan ham oziqlanishi mumkin. (Telenga,1930,Yaxontov,1934). Harorat 26°S dan oshib kesa, yangi avlod va yeski qo'ng'izlar salqin joylarga berkinib, 25°S dan pasayganda yana qayta chiqib oziqlana boshlaydilar. Bunda ular tuxum qo'yishi ham mumkin. O'rtacha harorat 12°S dan yuqori va 25°S dan past bo'lsa 55 – 60 kunda

qo'ng'izlarning jinsiy mahsulotlari yetiladi. Bundan yuqori yoki past haroratda qo'ng'izlar tuxum qo'ymaydi. N.A. Telenga (1930) Xivada 17 sentyabrda fitonomus qo'ng'izlarining tuxum qo'yganligini kuzatgan. Ba'zi mintaqalarda harorat doimiy yuqori yoki past bo'lganda kuzgi urug'lanish va tuxum qo'yishi jarayoni bo'lmasligi ham mumkin (Yaxontov 1934). V.V. Yaxontov (1928) kuzatishlarida, noyabr oyida 80% tuxum qurigan beda poyalarida 20% yesa ko'k beda poyalariga qo'yilgan. Qayd yetilishicha ikkinchi avlodning rivojlanishi hech qayerda, hatto O'rta Osiyoning issiq sharoitida ham kuzatilmagan. Biroq P.P. Bogush (1949) ma'lumotlarida Turkmanistonda ikkinchi generatsiyaning qisman rivojlanishi kuzda yetilgan.

V.S. Chuvaxin (1952), A.A. Migullin (1983) va G.I. Sadikovlarning (1991) ko'rsatishicha, janubiy xududlarida fitonomus lichinkalaridan tashqari, ularning tuxumlari ham qishlashi mumkin. Yozda harorat 30-37⁰ S da qo'ng'izlar yozgi uyquga ketadi. Harorat pasayganda ular uyg'onib, 20-25 kun oziqlanib keyin tuxum qo'yadi. Bu tuxumlar rivojlanmay qishlashga qoladi. Oldinroq qolgan tuxumlardan lichinkalar chiqishi mumkin va ular oziqlanib 2-3 yoshgacha rivojlanadi, lekin hech qachon g'umbakka aylanmaydi 11-12⁰ S dan pasayganda qishlashga ketadi (Yaxontov, 1934). Adabiyotlarda ko'rsatilishicha *Phthonomus variabilis* Hbst turidan tashqari yana ikkita *Ph. murinus* F va *Ph. fasciculatus* Hbst turlari ham kam miqdorda tarqalgan. Qarshi cho'li bedazorlaridagi kuzatishlar natijasida yana bir yangi tur *Ph. farinosus* Boh mavjudligi V.A. Zaslavskiy tomonidan aniqlanadi (Hojimuratova, 1968).

1.2. Fitonomusga qarshi kurashish tadbirlari va ularning samaradorligi.

Bedazorlardagi zararli hasharotlarga qarshi o'z vaqtida samarali kurash olib bormasdan turib, bu yekinning bir me'yorda o'sishi va rivojlanishini ta'minlash va undan mo'l hosil yetishtirish mumkin yemas. Ma'lumki, zararli hasharotlarga qarshi kurashda ko'pgina vositalardan foydalaniladi. Xususan fitonomusga qarshi kurashishda hozirga qadar qo'llanilgan xilma xil vositalar

to'g'risida adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar mavjud. (Raufov,1956. Raxmatulina, 1971).

Karantin xizmati yevaziga ko'p vaqt fitonomusning tarqalishi cheklab turildi. Keyinchalik yesa u tarqalgan joylarda dastlab kimyoviy vositalar qo'llanila boshlandi. 1921-1934 yillarda fitonomusga qarshi mishyakli vositalardan foydalanish ommaviy tus oldi. Uni turli hududlarda har-xil miqdorlarda qo'llab, yaxshi natijalar olingan yedi. Bunday ma'lumotlar G/I/ Reyeves (1961), C.P/ Gillette (1919), B.B/ Fulton (1921), L.P SNOW (1925), K.V.Novojilov (1987)ishlarida keltirilgan.V.V.Yaxontov (1934) ham mishyaklik birikmalarini O'zbekistonda fitonomusga qarshi qo'llab yaxshi natijalarga yerishgan edi. Keyinroq fitonomusga qarshi DDT va GXSG ni ishlatish tavsiya qilindi. Biroq ko'p vaqt o'tmay ularning ham atrof muhit uchun juda zararli yekanligi aniqlandi. Keyinchalik sintetik piritroid vositalar ishlata boshlandi. O'rta Osiyo o'simliklarini himoya qilish ilmiy tadqiqot institutiga fitonomusga qarshi kurashishda Fazalon, Sayfos, Sumasidin, Ambush va boshqa kimyoviy unsurlar qo'llanilib, ularning samaradorligi darajalari aniqlandi va maxsus tavsiyanomalar ishlab chiqildi (Alimuhamedov, Maxmudxo'jayev va boshqalar, 1987).Lekin shunga qaramay, fan va ishlab har tomonlama puxta ishlangan, sanitariya va gigiyena talablariga javob beradigan, biologik omillarni keng qo'llashga asoslangan, shuningdek bir qancha muhim masalalarni o'z ichiga olgan har jihatdan mukammal himoya vositalari va usullariga muhtoj yedi. Bedazorlarda tarqalgan foydali hasharot turlari xilma - xilligi, yuqori biologik faoliyatiga yegalligi bilan muhim ahamiyat kasb yetadi (Navojilov, 1987). Shu bois bedani zararli hasharotlardan himoyalash uchun ishlab chiqilgan barcha kurash usullari bu tabiiy omillarni mumkin qadar ko'proq saqlab qolishga qaratilgan bo'lishi lozim yedi. Bularni nazoratda tutib hasharotlarning kasaliklari o'rganildi va ular asosida biologik vositalar ishlab chiqildi.M.Akmalova T. Odilovning 1974-1975 yillarida biologik vositalar ta'sirini sinash borasida olib borgan tajribalarida bitoksibasillin (BTB-202)fitonomusning miqdorini kamaytirishda yaxshi natija bergan shuningdek, bitaksibasillin preparati

ta'sir yetganda ko'pgina lichinkalar rivojlanishda davom yetishi, lekin g'umbalik davrida yesa ular ko'pchiligi chala g'umbalik davri oxirigacha rivojlanmasligi tajribalar natijasida aniqlandi.(Polevshikova, Umarova, Odilova, 1974). Shunga o'xshash ma'lumotlarni ko'pgina boshqa olimlar o'zlarining tajribalarida kuzatganlar (Leskova.Ribina, 1971; Stus, 1976) .Bedaning o'suv davrida fitonomusga qarshi kurashda superfosfatning insektisidlar bilan birga qo'llanilib kelinmoqda. Shuningdek fitonomusga qarshi kurashda uzoq vaqt davomida GXSG superfosfat bilan qo'llanib kelindi (Juravskaya, Kostenko, Spiridonov, 1954 ; Polevshikova, 1962).Xerson viloyatining Syurupinsk tumanida urug'lik bedani fitonomusdan himoya qilishda lepidasid gektariga 1 kg qo'llanilganda har gektar hisobiga 1,2 sentner qo'shimcha don hosil olindi. (Zurabova va boshqalar, 1986)

Mineral moddalarning o'simlik bargi orqali o'zlashtirilishi o'tgan asr boshlarida aniqlangan yedi (Busenga 1936). Ya.Shoverov (1894) hasharotlarga qarshi kurashning yangi usulini, ya'ni zararlangan daraxtlarning kovaklari va teshiklariga zaharli moddalar yuborishni taklif yetdi. Keyinchalik hasharotlar bilan shikastlangan o'simliklarini shu xilda davolash usullarini S.A.Makrjeskiy (1904) va boshqa bir necha olimlar qo'lladilar va ular shu maqsadda nafaqat zararli moddalardan, balki mineral moddalaridan ham foydalanadilar (Maskov , 1952 , RUKOV, 1957).O'simliklarni ildizdan tashqari qo'shimcha oziqlantirish yo'li bilan hasharotlarga qarshi kurashish yoki mineral moddalarni hasharotlarga qarshi qo'llash masalalari adabiyotlarda e'tirof yetilgan. O'simliklarni himoya qilishda insektisidlarni ildizdan va yer usti qismidan oziqlantirish yo'li bilan kimyoviy moddalarga mineral moddalarni aralashtirib qo'llash ham tavsiya qilingan (Rous Tompson va Roberslar).1944-1945 yillarda daraxtlarga purkaladigan mineral oziq moddalar faqat o'simlik barglari orqali yemas, balki yosh navdalarning bo'g'im oraliqlari orqali o'zlashtirilishini aniqladilar va bu yerta bahorgi ishlov o'simliklarini kuchlantirib, hasharotlarga qarshi chidamlilikni oshirishi dagi muhim tadbir deb hisoblaydilar.(Maskov 1940).K.I.Popova 1953 yilda bug'doyda ham kasalliklar va zararli hasharotlarga qarshi kurashda ildizdan tashqari

oziqlantirishdan foydalanib yaxshi natijalarga yerishgan. I.G. Noskov (1953) o'rgumchakkanaga qarshi kurashda superfosfat bilan oltingugurt aralashmasini g'o'za bargiga purkashni tavsiya qiladi. S.S. Rubin (1949) ildizdan tashqari bargdan oziqlantirishda oziq moddalarni yomg'ir holda yog'dirib yoki purkab qo'llash hasharotlarga va kasalliklarga qarshi kurashning istiqbolli usuli deb ta'kidlagan yedi. Boshqa ko'pgina olimlar beda va boshqa qishloq xo'jalik yekinlarining umumiy hosildorligini oshirishida mikroyelementlarni barg orqali qo'shimcha oziq sifatida berib yaxshi natijalarga yerishdilar (Maskov 1940; Rubin 1949). Adabiyotlarda mineral o'g'itlarni to'g'ri qo'llash o'simliklarning zararli hasharotlarga chidamliligini ancha oshirishi to'g'risida ko'plab ma'lumotlar keltiradi. (Lebedov 1957; Sermeng 1965, Barakov 1966, Hamedov 1970) yentomofoglarning 110 turi ro'yxatga olingan. Bulardan 39 turi yirtqichlar va 71 turi foydali tekinxo'rlardir. Tuxumxo'r yaydoqchilardan: Pnophoidea Suna Italiyada F. Silvestri (1915), Fransiyada F. Pikard (1914) tomonidan qayd etilgan.

1.3. Fitonomus miqdorini kamaytiruvchi tabiiy kushandalar.

Fitonomusning barcha tekinxo'rlari orasida lichinkalarning tekinxo'rlari ixneumonid *Canidia yexigua* – *Bathyplecteis* eng muhim va asosiy tekinxo'r hisoblanadi. U fitonomus tarqalgan barcha mintaqalarda uchraydi. Bu yaydoqchi Toshkent va Buxoro atrofida V.V. Yaxontov (1934), Xiva atrofida N.A. Telenga (1930) tomonidan chuqur o'rganilgan. M.G. Usmonovning (1992) ko'rsatishicha, bu foydali tekinxo'r Ozarbayjonda ba'zi yillari 65% gacha fitonomusni qiradi. Shu kabi ma'lumotlar A. Raodev (1967) kuzatishlarida ham ta'kidlanadi.

V.N. Polevshikova (1977) ham bu yaydoqchi fitonomus lichinkalarini kuchli zararlashini kuzatgan va botiplektisni fitonomusga qarshi qo'llash istiqbolli yekanligini, shuningdek biologiyasini chuqurroq o'rganib laboratoriyada ko'paytirish uslublarini ishlab chiqarish muhim muammo yekanini ta'kidlaydi. Lekin bu tekinxo'rning unumini 10% ya'qin ikkilamchi, ya'ni ustama tekinxo'rlar pasaytirib turadi, ularning ko'p turlari aniqlangan (Yaxontov 1934, Jumanov,

Jumayev 1992). O'rta Osiyoda fitonomusni kamaytiruvchi foydali hasharotlar orasida ahamiyatlirog'i cryptus Sp hisoblanadi. U Buxoro atrofida qayd qilingan (Yaxontov 1934) *Pefillitus Secalis* yeca qo'ng'izlarida tekinxo'rlik qilishi Xivada N.A. Telenga (1930) tomonidan kuzatilgan. O'rgimchaklar vakili *Achorolophus ignotus* oudms ning lichinkalari Buxoroda V.V.Yaxontov (1929) tomonidan fitonomus qo'ng'izlari ular yozgi uyqudaligida va undan keyingi hayot davrlarida zararlashi aniqlangan. *Dinacampus terminatus* Neyes ni Toshkent viloyatida V.V.Yaxontov (1929) bahorda yig'ilgan fitonomus qo'ng'izlarini zararlaganligini kuzatgan. *Anoplestis alternans* Gray yesa fitonomusning g'umbaklarida tekinxo'rlik qiladi. (Lujeskiy, Kestin, Mis 1955). *Fotraschus insertus* R ham fitonomus lichinkalarining tekinxo'ridir (Davleshina, 1970). Bundan tashqari bedada ko'p miqdorda uchrab, fitonomusni doimo ta'qib yetuvchi foydali yirtqich hasharotxo'rlar orasida yeng ko'p tarqalganlari xonqizi qo'ng'izlari, oltinko'zlar, sirfid pashshalari va yirtqich qandalachalardir. Xonqizi qo'ng'izlari va ularning turli yoshdagi lichinkalari fitonomusning mayda lichinkalari va tuxumlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga yegadir. Z.K.Adilovning (1965) laboratoriya materiallarida *Cocainella septempunctata* ning 1 qo'ng'izi bir sutkada kichik yoshdagi fitonomus lichinkalaridan 5-7 tasini yeganligi aniqlangan. Adonis Variyegata Boyeze-ya'ni o'zgaruvchan xonqizi keng tarqalgan bo'lib, u ham V.N.Polevshikova (1977) kuzatishlarida o'rtacha bir kunda 5 tagacha kichik yoshli fitonomus lichinkalarini iste'mol qilgan. *Chryzopa carma*-S oddiy oltinko'z ham fitonomus lichinkalari bilan oziqlanadi. (Polevshikova, 1977) Bulardan tashqari, adabiyotlarda yirtqich qandalalardan *Orius Niger* Wolf, *Nabis paliter* Siid ning fitonomus tuxumlari bilan oziqlanishi qayd yetilgan. (Polevshikova, 1962).

Sanab o'tilgan barcha foydali hasharotlar majmui shubhasiz agrosenozlarda fitonomus miqdorini ma'lum darajada chegaralab turadi. Shunga qaramay, ular faoliyatidan tabiiy biologik kurash omili sifatida foydalanish ishi haligacha o'z yechimini topgani yo'q. Shuningdek bedani zararli hasharotlardan himoya qilish

sohasida juda ko'p diqqatga sazovor ishlar amalga oshirganligiga qaramay ularning barchasi tabiat, ya'ni atrof muhitni muhofaza qilish talablariga to'liq javob bera olmaydi. O'simliklarni, xususan bedani, himoya qilishning ilg'or yekologik talablar darajasida usullarini ishlab chiqish keyingi yillargacha o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Buni nazarda tutib mazkur tadqiqotda muhitga zararsiz yekologik omillarni keng qamrovda o'rganish asosida fitonomusga qarshi kurashda ulardan foydalanish yo'llarini ilmiy asoslash asosiy maqsad qilib olindi.

II.BOB. Tadqiqot o'tkazilgan hudud materiallari va usullari.

2.1. Tadqiqot o'tkazilgan hududning tabiiy sharoitlari.

2.2. Tadqiqot materiallari va usullari.

Rejalashtirilgan izlanishlar yerta bahorda kech kuzgacha oldindan belgilangan beda poyalarga olib borildi. Kuzatishlar davomida Samarqand tumani bedazorlarida fitonomus miqdori 600 dan ortiq marta maxsus chiqishda hisoblab chiqildi. Bunda mavsum davomida 65 gektardan ortiq beda maydoni ilmiy kuzatuv va tekshiruvdan o'tkazildi. Bunday kuzatuvlar vaqtida 294 ta tuproq namunalari olindi. Fitonomusni hisobga olish uchun beda maydonlarining har 25 metridan jami 100 o'simlik poyasi to'liq tekshirilib, fitonomusning lichinka va qo'ng'izlari sanab borildi. Bunday tekshiruv va hisoblar davomida 752 dona fitonomus lichinkalari, ko'plab qo'ng'izi, g'umbaklari, tuxumlari, shuningdek ular bilan birga uchraydigan yirtqich va tekinxo'r, foydali hasharotlar pillasi hamda g'umbaklar terib olindi. Hisoblash vaqtida yig'ilgan har-xil holatdagi hasharotlar ularning turlarini aniqlash va hayot jarayonlarini atroflicha o'rganishi maqsadida laboratoriyada voyaga yetgungacha maxsus idishlarda parvarish qilindi.

Dastlabki birinchi qism kuzgi dala tadqiqotlari qishlashga ketayotgan fitonomus avlodlariga qarshi har-xil tadbir va vositalar sinab ko'rish uchun Samarqand tumanida o'tkazildi. Fitonomus lichinkalariga qarshi quyidagi variantlarda dala va laboratoriya. Tajribalar amalga oshirildi.

1. Sumi-alfa 5% ye.k. + mochevina ammiakli selitra oziqali aralashmasi (gek. 0,15 l+2.0kg+3.0 kg).

2. Sumi-alfa 5% ye.k. (gek. 0.3 l) (andaza).

3. Nazorat (zararlangan bedaga suv purkaldi). Tajribaning umumiy maydoni 4 gektar. Barcha dorivorlar suyuqlik aralashmalar bilan beriladigan ishlovlar OVX-2VA agregatli traktor moslamasida o'tkazildi. Ishchi yeritmalar gektariga 200 l. hisobida purkaldi. Laboratoriya sharoitida fitonomus lichinkasining 3 yoshlariga kimyoviy va kimyoviy oziqali aralashmalarning ta'siri aniqlandi. 1) Sumi-alfa 5%

ye.k. (gek. 0.15l)+mochevina (gek. 2kg)+ ammiakli selitra (gek.3kg) ozuqali aralashmasi.2) Sumi-alfa 5% ye.k. (gek. 0.3 l) (andaza).

3) Nazorat (ishlovsiz).2010 yil bahorda ho'l pichan uchun qoldirilgan beda maydonlarida agrotexnik tadbirlarni qo'llagan holda fitonomus lichinkalariga qarshi kichik maydonli tajribalar o'tkazildi.1) Sumi-alfa 5% ye.k. (gek. 0.15l)+mochevina (gek. 2kg)+ ammiakli selitra (gek.3kg) ozuqali aralashmasi.

2) Sumi-alfa 5% ye.k. (gek. 0.3 l) (andaza)3) Nazorat (toza suv purkaldi).

2012 yil bahorda fitonomusga lichinkalariga qarshi kurashda kimyoviy va kimyoviy mineral o'g'it aralashmalari qo'llash va ularning samaradorligini aniqlash bo'yicha kichik maydonda tajriba ishlari olib borildi. Mazkur tajribalar ham Ubaydullo bobo fermer xo'jaligida mart oyining boshida o'tkazildi. Tajribalar quyidagicha farqlanuvchi 6 bo'lakli va 4 takrorlikda o'tkazildi.

1.Sumi-alfa 5% ye.k. (gek. 0.15l)+mochevina (gek. 2kg)+ ammiakli selitra (gek.3kg) ozuqali aralashmasi.

2 Ammiakli selitra (gek. 4kg).3.Mochevina (gek. 3kg).4.Mochevina + ammiakli selitra (gek. 2kg+3 kg).

3 Sumi-alfa 5% ye.k. (gek. 0.3 l) (andaza)6. Nazorat (toza suv purkaldi).Tajriba maydoni 0.75 ga bo'lib, suyuq aralashmalar bilan ishlov bergan Avtomaks YeRA -1 qo'l purkagichi yordamida bajarildi. Ishchi yeritma sarfi 500 l/ga ni tashkil qildi.2011 yilda ushbu ko'rinishdagi tajriba tizimi o'zgarilmagan holda 6 bo'lakli, 4 takrorlikda keng dalali qilib, o'tkazildi. Tajribaning umumiy maydoni 10 ga bo'lib, aralashmalar bedaga OVX -28 rusumli traktor moslamasi yordamida purkaldi. Bunda ishchi yeritma sarfi gektariga 200 l. ni tashkil yetib, tajriba shu yilning 7 aprelida boshlandi.

Yeritmalarni purkash muddati bilan farqlanuvchi tajriba Ubaydullo bobo f/x.da 4 bo'limli ko'rinishda 4 takrorlikda o'tkazildi. Yeritma tarkibi quyidagicha: mochevina (gek. 2kg)+Ammiakli selitra (gek. 3kg):

1. Ertangi ishlov (20 mart).
2. Ertangi va kechki ishlov (20 mart va 1 aprel).
3. Kechki ishlov (10. aprel).
4. Nazorat (ishlovsiz).

Tajribada ishchi yeritma gektariga 500 l hisobidan sarflandi. Avtomaks YeRA-1 qo'l purkagichi yordamida purkaldi. Dorilar sepilgandan so'ng 3-5-7-10 kunlari maxsus kuzatuvda hasharotlar hisobga olindi va qo'llanilgan ositalarsamaradorligi aniqlandi. Tajribalarda dori sepishdan oldingi va keyingi hisobga olishlar ikki xil tartibda amalga oshirildi. (Megalyov, 1968) 1. Fitonomus qo'ng'izlarini hisoblash dalaning qarama-qarshi burchaklarida, qarama-qarshi yo'nalishda har 25 m. oraliqda bir bor 50x50 sm kenglikdagi maydonchalarda o'tkazilib, ular jamlanib har 1m² hisobiga taqsimlanadi. 2. Fitonomus lichinkalari dastlab har 25m dagi 4 ta poyada sanab chiqilib, ularning 100 ta o'simlik poyasidagi miqdori aniqlandi. Shu bilan birga lichinkalar katta yoshga o'tgach ular yentomologik matraplar yordamida ham hisoblab turildi. Hisoblar davomida daladan yig'ib keltirilgan fitonomus lichinkalari yuqorida qayd yetilganidek, laboratoriyada saqlab boqildi. Fitonomus qo'ng'izlari yesa jonsizlantirib maxsus yentomologik to'shakchalarga terildi. Bedani o'rish paytida ho'l pichan bilan birga daladan olib ketiladigan barcha hasharotlar miqdori ham hisobga olib borildi. Bundan o'rilayotgan ho'l bedadan 4 kg dan namuna olib undagi hasharotlar miqdori pichanni titkilab sanash yo'li bilan hisoblandi. Har bir tajribada hosildorligining o'zgarish bo'laklari va takrorliklar bo'yicha alohida hisoblandi. Buning uchun bedaning 1 m² dagi ham ho'l, ham quruq vazni o'lchab borildi. Fitonomus qo'ng'izlariga va lichinkalariga qarshi qo'llanilgan har-xil moddalar va aralashmalarning ta'sirini va samaradorligini aniqlash va umumiy qabul qilingan qo'llanmalar va uslublar asosida hisoblandi.

Fitonomus lichinkalariga qarshi kurashda qo'llanilgan vositalarning samaradorligi ishlovdan so'ng 5-7-10 va 15 – kunlarda maxsus hisob kitoblar asosida aniqlandi. Biologik samaradorlik quyidagi formula yordamida aniqlandi

$$Y_{ef}=100x(AV-Va)/(Av)$$

Bunda Y_{ef} biologik samaradorlik;

A -ishlovgacha bo'lgan hasharotlar soni;

a - ishlovdan so'nggi hasharotlar soni;

V -nazoratdagi ishlovgacha bo'lgan hasharotlar soni;

v -ishlovdan so'ng nazoratdagi hasharotlar soni

100-foizga aylantirishi koeffitsienti. Olingan ma'lumotlarning matematik aniqligi A.I.Fedorov (1967) qo'llanmasi asosida ishlab topildi.

O'rtacha kattalikdagi xato quyidagi formula bilan aniqlandi.

$$M=g/ n; \quad g = \Sigma^2/Yn; \quad M= \Sigma^2 / Yn$$

M - o'rtacha arifmetik aniqlik.

m -O'rtacha arifmetik xato.

Ye -barcha tuzatishlar yig'indisi.

n -kuzatish soni (miqdori).

G -o'rtacha kvadratik cheklanish

V --har bir o'lchov

2.3. Fitonomusga qarshi qo'llanilgan vositalarning tavsifi.

Qishloq xo'jalik yekinlarining turli zararli hasharotlardan himoya qilish uchun ko'pgina vositalar qo'llanilgan. Bular orasida kimyoviy vositalarning atrof muhit mavjudotlarga zararli ta'siri keyingi yillarda aniqlangan. Biroq ular zararkunandalarga qarshi kurashishda asosiy vosita bo'lib, yangi yuqori samara beruvchi vosita va tadbirlar izlab topilmaguncha ulardan to'la voz kechib bo'lmaydi. Bu vositalarning har bir hasharot uchun tegishli turini belgilangan me'yorda qo'llanishi yuqori samara berishi har joyda ham tajribalar asosida ilmiy asoslangan. Ammiakli selitra NH_4NO_3 34% azotni NH_3 va NO_3 formada mochevina $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ toza karbamid 46,6 % azot amid (NH_2) holatida saqlaydi. Ularning aralashmasi yuqori konsentrasiyalı azotli o'g'it hosil bo'lishiga olib keladi.

Ularning birikmasi yerkin ammiak saqlaydi, o'simliklar tomonidan o'zlashtirilishi qulay NO_3 anioni yesa tuz hosil bo'lishida ishtirok yetmaydi va tuproq sho'rланmaydi. KAS (karbamid-ammiakli selitra) yeritmasi boshqa azotli o'g'itlardan;

- Ishlab chiqarishdagi kam xarajatlilik;
- Qadoqlash jarayonlarining yuqori darajada aniq bo'lishi;
- Ular sepilganda o'g'it tarkibidagi N miqdorining kamaymasligi kabi bir qator afzalliklarga yega. KAS yeritmalari boshqa azotli o'g'itlardan yana shunisi bilan farq qiladi, ular o'simlik hujayralari tomonidan molekula kurinishida o'zlashtiriladi. Ya'ni o'g'itning ferment ta'sirida dastlabki parchalanishi kuzatiladi.

Dala tajribalarida fitonomusga qarshi kurashda boshqa tadbirlar bilan birga andaza sifatida Sumi-alfa+ (5% ammiak) qo'llanildi. Sumi-alfa piretroid vosita bo'lib, Yaponiyaning Sumitomo-kemikal "KO" "LTD" firmasi tomonidan ishlab chiqilgan. Uning ta'sir qiluvchi moddasi "Yesfenvalerat" ning faol izomeridir. Sumi-alfaning umumiy nomi "Yesfenvalerat" –dir. U oshqozon – ichak orqali va tashqaridan ta'sir yetuvchi kimyoviy vosita bo'lib, atrof muhitga zararli ta'siri

kam. Tajribalarning ba'zi bo'laklarida bu piretroid yarim me'yorida o'g'itlar bilan (sumi-alfa+mochevina+ammiakli selitra) (gek 0,15 l+2 kg+3 kg) qo'shib ularning aralashmasi qo'llaniladi. Bunda zararli hasharotlarni tezroq kamaytirish bilan bir vaqtda o'simliklar quvvatini, shuningdek ularni chidamliklarini oshirish, o'sishini tezlashtirish maqsad qilib olgan yedi.

III BOB. Tadqiqotlar natijalari.

3.1. Beda agrosenozida fitonomus miqdorining mavsumiy o'zgarishi va zararining ko'lami


Fitonomusning biologik va yekologik xususiyatlari turli xil iqlim sharoitida ko'plab olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan (Grosgeym 1914, Telenga 1930, Arxangelskiy 1941, Yaxontov 1953, Aliyeva 1953, Bayramov, Islomov 1970, Olimjonov 1968, 1974, Antonova 1988) Samarqand janubiy hududida 2010 yil bahorida havo harorati 13-13 °S dan oshganda fitonomus qo'ng'izlarining yoppasiga qishki uyqudan uyg'onib, fevral oyining o'rtalaridan oziqlanishga kirishadi va oy oxirida tuxum qo'ya boshlaydi, mart oyining birinchi besh kunligida Samarqand tumani, Ubaydullo bobo fermer xo'jaligidagi tajriba dalasida har 100 ta o'simlikning har bittasida qo'ng'izlarning 5tdan 13 gacha tuxum qo'yganligi aniqlandi. Tuxumlar dalaning uzun o'sgan, yo'g'on, sersuv ichi kovak poyalar ichidan topildi. Bu tuxumlar asosan poyaning pastki 3-5 bo'g'imlarida joylashgan bo'lib poyaning ichki devoriga ba'zan yopishtirib yonma-yon ba'zilari yesa ustma-ust joylashtirilgan yedi. Tuxumlarning ranglari oq yaltiroqdan malla rangacha bo'lishi kuzatildi. Binokulyar o'lchanganda tuxumning uzunligi 0,65-0,70 mm, yeni 0,35-0,40 mm yekanligi aniqlandi. Tuxum uchun ochilgan poyadagi teshiklarning kattaligi 44x15 mm, uning atrofi quruq bo'lib, ko'k poyada sariq dog'lar ko'rinib turadi va qattiq modda bilan (teshikcha) yopilgan bo'ladi.

Lichinkasining uzunligi 10 mm gacha oshadi; oyoqlari bo'lmaydi. anasining qorin qismidagi har qaysi segmentida ikkita yirik bo'rtma bor, lichinka ana shu bo'rtmalar yordami bilan o'rmaydi. Lichinkalar yashil rangli bo'lib, ko'pincha sarg'ich tovlanib turadi; kallasining rangi to'q qo'ng'ir yoki qora; kallasidan tanasining oxirigacha oq rangli qambar chiziq o'tadi. Dastlabki kichik yoshdagi fitonomus lichinkalari ham mart oyining birinchi besh kunligida barcha dalalarda bedaning uchki o'sish ko'rtaklari ichida qayd yetildi. Ularning 100 ta o'simlik poyasidagi miqdori o'rtacha 95 tani tashkil yetdi. Bu lichinkalarning miqdori

